

**O'tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” asarida qo'llanilgan metaforalar tahlili****O'rozova Feruza**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada metafora hodisasini grammatik jihatdan tahlil qilingan, metafora ko'chimning ma'no turlari asar yuzasidan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tasviriy vositalar, o'z ma'no, metafora, ko'chim.

Kirish: Tilshunoslik fanida metafora hodisasi-tilshunoslikdagi mavjud iboralarni qayta ko'rib chiqish jarayonida tayyor metaforik ma'no sifatida ko'rib chiqilgan. Metafora hodisasini o'rganish bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Nutqimizda eng ko'p qo'llanadigan va keng tarqalgan mano ko'chish usullaridan biri bu metaforadir. Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida so'z ko'chishdir. Metafora hodisasi tilshunoslikdagi mavjud iboralarni qayta ko'rib chiqish jarayonida yangi ma'nolarni yaratish vaqtida tayyor metaforik ma'no sifatida ko'rib o'tadi. Bu usul deyarli barcha asarlarda uchraydi.

Metafora (gr.metophora-ko'chirish) nutq mexanizmi biror leksema denotatining tashqi o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatiladi. Metaforik ma'no hosil bo'lishida quyidagilar sabab bo'ladi:

1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi. Shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi.

2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z denotatining ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Metafora asosan ot so'z turkumi doirasida uchraydi: daryoning yoqasi ko'chma manoda yoqa so'zi asosan odamning kiyimiga nisbatan xos bo'lgan so'zligi uchun kiyimning yoqasi tarzida o'z ma'noda



bo‘ladi. Metoforani o‘rganish qadimdan tilshunoslik diqqat markazida bo‘lib kelyapti. Antik davrlarda metaforani olamni anglashning alohida usuli va vositasi sifatida ko‘rsatish Aristotelga taaluqli g‘oyadir. Metaforik hosila ma’no nutqda juda ko‘p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani—sememaga aylangani nisbatan kam qo‘llanadi¹.

Barcha asarlarda qo‘llanilgani kabi O‘tkir Hoshimovning ushbu asarida ham voqealarni tasviriyl vositalar orqali aytishi muhim hodisalardan biridir. O‘tkir Hoshimovning “Bahor qaytmaydi” asarida quyidagi metaforalarni uchratamiz:

*Bo‘ston qishlog‘iga **og‘ir vazmin** qadamlar bilan kuz kirib keldi (3-bet).*

*Havoda ananas isi aralash xazonlarning **o‘tkir hidi gurkiradi (3-bet).***

*Chor- atrof yaproqlarning **munqli shivir-shiviriga to‘ldi.(3 bet)***

*Ko‘nglida g‘ijinishmi adovatmi allaqanday xira bir **tuyg‘u uyg‘ondi.(7-bet)***

*Muqaddam **erka tabassum** bilan unga qarab qo‘ydi.(9- bet)*

*Anvar uning ko‘zlarida o‘ziga qadrdon bo‘lib qolgan **iliq mehrni** sezdiyu quvonib ketdi (11 -bet)*

*Ular **anhor yoqasidagi** yolg‘iz oyoq yo‘ldan izma-iz borishardi.(11-bet)*

Anhor yuzi sekin sekin qoraya boshladi.(13 -bet)

***Telba to‘lqinlar** yuvosh bo‘lib qoldi.(18 -bet)*

*Ko‘nglida **uyg‘ongan muommoga** javob topganda bo‘ladi.(21 -bet)*

*Shirin **tuyg‘ularga g‘arq** etardi.(26-bet)*

*Yerdan **mayn hovur** ko‘tarila boshladi.(33-bet)*

*Ko‘nglida **umid uyg‘ondi(47-bet)** (Tashqarida **shamol uvullaydi (49- bet)**)**Iboli tuyg‘ular** borligini darhol payqab qolgan (57- bet) Yirik yirik yulduzlar yondi(99- bet).*

***G‘amgin qoyalar** qilib qo‘ygan gunohidan qo‘rqib ingrab yubordi(158- bet).
Ko‘kda momaqalldiroq **faryod soldi.((157- bet)***

Ushbu parchada metaforaga oid birliklar keltirilgan. Masalan: “Bo‘ston qishlog‘iga o‘gir vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi” birligida “og‘ir- vazmin qadamlar bilan kirib

¹.Sh. Rahmatullayev. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili “ 2006.



keldi “ iborasi tarzida yuzaga kelgan.Buning sababi aslida o‘g‘ir vazmin qadamlar bilan kirib kelmoq birligi narsalarga emas balki,insonlarga nisbatan ishlatiladi.Masalan:” Azim futbol o‘yinida toliqib o‘g‘ir vazmin qadamlar bilan xonaga kirib keldi “o‘z manosida qo‘llangan.Ammo tepadagi birlikda ko‘chma ma’no yani o‘z ma’nosini yo‘qotib “Harakat-holat”ma’nosida ma’no ko‘chgan.Lekin “og‘ir-vazmin qadam” so‘zida ham metafora mavjud.bu yerda og‘ir- vazmin so‘zi qadamga nisbatan emas,balki narsalarning og‘irligiga nisbatan ishlatiladi.

Ko‘nglida g‘ijinishmi adovatmi allaqanday xira bir tuyg‘u uyğondi

Ushbu parchada ham metaforaga oid birliklar keltirilgan. “yong‘oqlar xayolga tolgan va tuyg‘u uyğ‘ondi” birliklari orqali mano ko‘chgan. Xayolga tolish bu insonlarga xos xususiyat hisoblanib ,bu birlikda” Harakat-holat” manosida yuzaga kelgan. Tuyg‘u uyğ‘ondi birligi ko‘chma manoda bola uyğ‘ondi birligida bo‘lsa o‘z manosida qo‘llanadi.”Xira tuyg‘u” birligi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan.bu asosan “Daraxtlar oy yorug‘ida xira ko‘rinar edi”birligida o‘z ma’noda keladi.Bu parchada ikki metafora birgalikda qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin.Kiyingi parchadagi birlikda “Ular anhor yoqasidagi yolg‘iz oyoq yo‘ldan izma- iz borishardi”.bu parcha inson kiyimlari qismlarining nomi narsalarga ko‘chgan.Masalan kiyimning yoqasi va anhorning yoqasi..”Shirin tuyğularga g‘arq etardi” birligida esa sifatning mano ko‘chishi bo‘lganda mano turi boshqa mano turini ifodalan. Bu parchadagi shirin- maza ta‘m bildiruvchi sifat hisoblansada bu parchada xususiyat hadagi shirin- maza ta‘m bildiruvchi sifat hisoblansada bu parchada xususiyat bildiruvchi sifat ma’nosini bildirgan. Iboli tuyğular borligini payqab qolgan. Iboli tuyg‘ular birligi ko‘chma manoda . Iboli so‘zi insonlarga nisbatan ishlatilishi .insonlarga xos xususiyat tuyğularga ko‘chgan.Masalan :”Nigora juda iboli qiz.”Ko‘kda momaqaldiraq faryod soldi. Momaqaldiraqning faryod solishi metoforani yuzaga keltirgan. Masalan urushda halok bo‘lganini eshitgan Masuma ona faryod soldi.shaklida bo‘lsa o‘z manoda qo‘llaniladi .tepadagi parchada esa ko‘chmavmanoda kelgan.



Metafora hodisasi ham ko'chimning bir turi bo'lib, unda borliqdagi barcha narsa belgi, harakat va hodisaning o'xshashlik asosida nom ko'chishiga asos bo'ladi. Ya'ni bu metaforada biror narsaning nomi boshqa biror bir narsaning nomiga o'xshashlik asosida o'rnida qo'llanishi mumkin. Metaforik asosida mano ko'chishida u nutqning go'zalligini, tasirchanligini va ekspressivligini oshirishga yordam berdi. Shu sababdan uning qo'llanish doirasi keng bo'lib u ilmiy va badiiy uslublarda keng doirada ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'tkir Hoshimov, “Bahor qaytmaydi – Toshkent “Global books”. 2021
2. Nurmonov “O'zbek tilining nazariy grammatikasi “ Toshkent “O'qituvchi” 1995
3. “O'zbek tilining ilmiy grammatikasi “ “O'zfan nashriyoti” Toshkent – 1941
4. Sh. Rahmatullayev. “Hozirgi o'zbek adabiy tili “ 2006.